

## O'ZBEK VA RUS TILLARIDA KUNDALIK NUTQDA FAOL QO'LLANILADIGAN FRAZELOGIZMLARNING QIYOSIY TAHLILI

**Sa'dullayeva Hilola Rasul qizi**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Xorijiy filologiya fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti kafedrası  
3-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Sherboyev Nosir Anorboy o'g'li – Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti kafedrası  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek va rus tillarida kundalik nutqda faol qo'llaniladigan frazeologizmlarning lingvistik va semantic xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida o'zbek var us tillaridagi frazeologizmlarning semantic mosliklari, ekvivalent va noekvivalent birliklar tahlil qilinadi. Xususan, ma'no jihatdan o'xshash bo'lgan iboralar orqali ikki xalq tafakkuridagi umumiyliklar ochib beriladi, milliy-madaniy xususiyatlarga ega frazeologizmlar misolida esa har bir tilning o'ziga xosligi asoslab beriladi. Shuningdek, frazeologizmlarning obrazlilik darajasi, ekspressivlik xususiyatlari va nutqdagi funksional ahamiyati alohida ko'rib chiqiladi. Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek va rus tillarini qiyosiy o'rganish, tarjima nazaryasi va amaliyoti, shuningdek, frazeologiya sohasidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, qiyosiy tahlil, o'zbek tili, rus tili, semantic, ekvivalentlik, tarjima, nutq, lingvistika, milliy xususiyat.

### **Kirish**

Til xalqning tarixi, dunyoqarashi, ma'naviyati va turmush tarzining eng muhim ifodachisidir. Har bir tilning o'ziga xos bo'lgan boyligi, eng avvalo, undagi frazeologik birliklar orqali namoyon bo'ladi. Frazeologizmlar xalqning qadimiy urf-odatlarini, turmush tajribasi, hayotiy kuzatuvlari va tafakkur tarzini mujassamlashtirgan til birligidir. Shu sababli frazeologizmlar nafaqat lingvistik hodisa, balki milliy-madaniy merosning muhim qatlami sifatida ham alohida o'rganishni talab qiladi. O'zbek, rus va ingliz tillari dunyoda nufuzli va ko'p millionlik nutq egalariga ega bo'lgan tillar sirasiga kiradi. Bu tillarning har biri o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'liga, madaniyatiga, urf-odatlariga va ma'naviy qadriyatlariga ega.

Frazeologizmlarni qiyosiy o'rganish lingvistik bo'lak sifatida ularning semantik, struktur va stilistik xususiyatlarini chuqur anglash imkonini beradi. Shuningdek, uch til frazeologizmlarining tarjima jarayonida qanday muammolar keltirib chiqarishi, ularni adekvat tarjima qilish yo'llari, kontekstning ahamiyati,

milliy-madaniy komponentlarning tarjimada saqlanishi kabi masalalar ham ushbu tadqiqotning dolzarb jihatlari hisoblanadi. Mazkur mavzuni o'rganish bugungi kunda tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va qiyosiy tilshunoslik sohalarida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ushbu ishda o'zbek, rus va ingliz tillariga oid frazeologizmlar qiyosiy tahlil qilinadi, ularning umumiylik va farqlari aniqlanadi, shuningdek, har bir tilga xos bo'lgan obrazlilik, mazmun, ma'no ko'chishi va uslubiy bo'yoqlar o'rganiladi. Frazeologizmlar, ularning lingvistik xususiyatlari, milliy-madaniy komponentlari va tarjima jarayonidagi o'rni tilshunoslikning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Frazeologiya tilshunoslikning alohida sihasi sifatida XX asrda shakllanib, turli olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Xususan, rus tilshunosligida frazeologizmlar nazaryasining asoschilaridan biri hisoblangan Viktor Vinogradov frazeologik birlikmalarni semantic yaxlitligi va barqarorligi asosida tasniflangan.[1] Uning fikricha, frazeologizmlartarkibiy qismlarining ma'nosi butun iboraning umumiy ma'nosiga to'liq mos kelmaydi va ular nutqda tayyor holda qo'llaniladi. O'zbek tilshunosligida frazeologiya masalalarini o'rgangan yetakchi tadqiqotchilar qatoriga Shavkat Rahmatullayev o'zbek frazeologiyasining yetakchi tadqiqotchilardan biri sifatida frazeologik birliklarni tilning barqaror va ajralmas qismi deb baholaydi. Nemat Mahmudov esa frazeologik birliklarning nutqdagi funksional xususiyatlarini o'rganib, ularning kommunikativ vazifasini chuqur tahlil qiladi. Shuningdek, A. Hojiyev o'zbek tilining izohli lug'ati va ilmiy tadqiqotlarida frazeologik birliklarni lexis tizimning muhim qatlami sifatida ko'rsatiladi.[7] E.Begmatov frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlarini o'rganib, ularning badiiy nutqda qo'llanishiga alohida e'tibor qaratadi.[8] Olimlar frazeologik birliklar nutqning ta'sirchanligini oshirishda muhim vosita ekanligini qayd etishadi. Bundan tashqari, B. Yo'ldoshev frazeologizmlarning struktur-semantik xususiyatlarini tadqiq etib, ularning tarkibiy tuzilishi va ma'no ko'chishi jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qiladi.[5] U frazeologizmlarni til tizimidagi mustaqil birlik sifatida qaraydi.

Rus tilshunosligida frazeologiya bo'yicha tadqiqotlar keng rivojlangan bo'lib, bu sohada V. V. Vinogradov, A. I. Smirnitskiy, N. M. Shanskiy, A. V. Kunin, D. N. Ushakov kabi olimlarning ilmiy merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, A. V.[4] Kuninning frazeologiya nazariyasi va frazeologik lug'atlari rus frazeologizmlarining tuzilishi, semantikasi hamda tarjima masalalarini o'rganishda asosiy manbalardan biridir. Rus frazeologiyasida ko'plab iboralar tarixiy, madaniy va mintaqaviy xususiyatlarga ega bo'lib, bu ularni qiyosiy tadqiq qilishni yanada qiziqarli qiladi.

O'zbek tilidagi frazeologik birliklarning muhim xususiyatlaridan biri – ularning hissiy – ekspressivligidir. Masalan: “ yuragi siqildi”, “ko'ngli tog'dek”, “ichi kuyib ketdi”, kabi iboralar insonning ichki ruhiy holatini kuchli emotsional bo'yoqda ifodaalydi. Bu esa o'zbek nutqining ta'sirchanligini oshiradi. Shuningdek, o'zbek frazeologizmlarida metaforik tafakkur ustunligi kuzatiladi. Ya'ni, ko'plab iboralar tabiat, inson a'zolari yoki kundalik hayotdagi predmetlar asosida ko'chma ma'noda shakllangan. Masalan, “ ko'zga ko'rinmaslik”, “ boshi osmonga yetdi “, “ yuragi muzlab ketdi “ kabi birliklar metaforik asosga ega.

O'zbek tilida frazeologizmlar ko'pincha:

- og'zaki nutqda faol qo'llaniladi,
- badiiy adabiyotda keng ishlatiladi,
- milliy mentalitetni aks ettiradi.

Ya'ni muhim jihati shundaki, o'zbek frazeologizmlarida axloqiy va tarbiyaviy mazmun kuchli. Masalan: “ yuzini yerga qaratmoq “, “ ko'ngil og'ritmoq” kabi iboralar ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq.

Rus frazeologiyasining asosiy xususiyatlaridan biri – tizimlilik va strukturaviy aniqlikdir. Rus tilidagi frazeologik birliklar ko'pincha aniq obraz va tasvir asosida quriladi. Masalan: “ ломать голову”, “ сидеть сложа руки”, “ держать себя в руках “ kabi iboralar aniq harakat yoki holatni tasvirlash orqali ko'chma ma'no beradi.

Rus tilida frazeologizmlar:

- yozma nutqda ham keng qo'llaniladi,
- ilmiy va publitsistik uslubda ham uchraydi,
- stilistik jihatdan qatlamlarga ajraladi.

Rus frazeologiyasining yana bir muhim jihati – tarixiy va madaniy qatlamlarning boyligi. Ko'plab iboralar qadimgi rus hayoti, diniy qarashlar va folklore bilan bog'liq holda shakllangan. Masalan, “бить баклуши”, “спустя рукава” kabi iboralar tarixiy asosga ega.

Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek va rus tillarida kundalik nutqda faol qo'llaniladigan frazeologizmlarning lingvistik tabiati, semantik xususiyatlari hamda funksional imkoniyatlari jihatidan muhim o'xshashlik va farqlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Frazeologik birliklar har ikkala tilda ham til tizimining barqaror, semantik jihatdan yaxlit va nutqning ekspressivligini ta'minlovchi muhim qatlami sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda, xususan, Viktor Vinogradov tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlarga ko'ra, frazeologizmlar semantik yaxlitligi va tayyor holda qo'llanishi bilan ajralib turadi.[3] Ushbu yondashuv o'zbek tilidagi frazeologik birliklar uchun ham to'liq mos keladi va ularning umumtil hodisasi sifatidagi universalligini tasdiqlaydi.

O'zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, Shavkat Rahmatullayev hamda Nemat Mahmudov asarlarida frazeologizmlar milliy madaniyat, tarixiy tajriba va xalq tafakkurining ifodasi sifatida talqin qilinadi.[6] Bu esa o'zbek frazeologiyasining kuchli milliylik va obrazlilik xususiyatiga ega ekanligini asoslaydi. Rus tilshunosligida esa Aleksandr Kuning va Nikolay Shanskiy tadqiqotlari frazeologik birliklarning strukturaviy, semantik va stilistik jihatdan tizimli o'rganilganligini ko'rsatadi.[2] Bu esa rus frazeologiyasining nazariy jihatdan chuqur ishlab chiqilganligini tasdiqlaydi.

Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha, o'zbek va rus tillarida frazeologizmlar o'rtasida quyidagi asosiy xususiyatlar mavjud:

- semantik yaqinlik va umumiy insoniy tajribaga asoslanganlik;
- nutqda tayyor holda qo'llanish va barqarorlik;
- ekspressivlik va obrazlilikning mavjudligi.

Shu bilan birga, farqli jihatlar ham kuzatiladi. Jumladan, o'zbek tilida frazeologizmlar ko'proq hissiy-ekspressiv va milliy xarakterga ega bo'lsa, rus tilida ular strukturaviy aniqlik va funksional kenglik bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, milliy xususiyatga ega frazeologizmlar tarjima jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi va ekvivalent birliklarni tanlashni talab qiladi.

Umuman olganda, frazeologizmlarni qiyosiy o'rganish tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat til tizimini chuqurroq anglash, balki turli xalqlarning madaniy va kognitiv xususiyatlarini ochib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari tarjima nazariyasi, qiyosiy tilshunoslik hamda frazeologiya sohasidagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vinogradov V. V. Основные типы фразеологических единиц русского языка. – Moskva: Nauka, 1977.
2. Kunin A. V. Фразеология современного английского языка. – Moskva: Vysshaya shkola, 1996.
3. Shanskiy N. M. Фразеология современного русского языка. – Moskva: Prosveshcheniye, 1985.
4. Smirnitskiy A. I. Лексикология английского языка. – Moskva: MGU, 1998.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2010.



7. Hojiyev A. O'zbek tili izohli lug'ati. - Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
8. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining stilistikasi. - Toshkent: Fan, 2008.
9. Yo'ldoshev B. Frazzeologiya va uning nazariy asoslari. - Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015.